

## IQTIDORLI O`QUVCHILAR BILAN ISHLASHNING MUHIM PSIXOLOGIK VAZIFALARI

*Mamadaliyeva Yulduz Abdulla qizi*

*Jizzax viloyati Zafarobod tumani 13-sonli maktabi psixologi*

### ANNOTASIYA

Mazkur maqolada ta'lim jarayonida iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash, ularda intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirish jarayonining psixologik jihatlari to'g'risidagi ma'lumotlar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** iqtidor, intellekt, aqliy rivojlanishi, o'zligini anglashi, qobiliyatlarini namoyon etish, intellektual ijodiy salohiyat

### KIRISH

Inson psixologiyasini tushunish, tahlil qilish, rivojlantirishga jiddiy e'tibor berish masalasi xamma zamonlarda va hamma davlatlarda xam ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning etakchi vazifalaridan biri bo'lib kelgan.

XX asr bo'sag'asida psixologiya fani va uning ilg'or vakillari o'zlarining navbatdagi jahonshumul ilmiy maqsadlari - insonga, ayni paytda, jamiyatga psixologik xizmat ko'rsatish tizimining muqarrarligini nazariy-ilmiy jihatdan asoslab berishga muvaffaq bo'ldilar.

Umuman, psixologik xizmat ko'rsatish muammosi ma'lum ma'noda, ilmiy psixologiyaning etakchi yo'nalishlaridan biri sifatida ko'p bor munozaralar manbai bo'lgan. Bu xaqda dastlabki psixologik tasavvurlar makoni bo'lmish Xindiston, Xitoy, Egipt, Vavilon, O'rta Osiyo, Gretsiyadan, shuningdek, jon (rux) xaqidagi kitobning muallifi Aristoteldan hamda temperament (mijoz) ta'limotining asoschilari Galen, Gippokrat va Abu Ali ibn Sinolardan tortib, to hozirga qadar psixologlar o'z fikr-muloxazalarini bildirib kelmoqdalar.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tarix va ijtimoiy hayot tamoyillari shuni ko'rsatmoqdaki, jamiyatning har tomonlama rivojlanishi va unda yuksak darajadagi hayot, turmush tarzining qaror toptirilishi, avvalo har bir faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdagi o'ziga xos psixologik salohiyatning nechog'liq to'la-to'kis namoyon etilayotganligi bilan belgilanadi. Zero, har bir mamlakatning porloq kelajagini odamlardagi ijodiy, intellektual va ma'naviy taraqqiyot yo'liga xizmat qiluvchi davlat mexanizmisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu boisdan bo'lsa kerak, hozirgi kunda barcha rivojlangan, rivojlanish yo'lidan borayotgan mamlakatlar birinchi galda o'z fuqarolarining ma'naviy, intellektual, jismoniy, ruhiy barkamolligiga va undan ijtimoiy manfaatlar uchun samarali foydalanish yo'llarini izlashga jiddiy e'tiborni qaratmoqdalar. Shu nuqtai nazardan, har

bir mamlakatda inson va uning faoliyati o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy- psixologik xizmat tizimining joriy etilishi ayniqsa, aloxida ahamiyat kasb etadi.

Yurtimizda yuz berayotgan ulkan o'zgarishlar barcha sohalarga, shuningdek, ta'lim jarayoniga xam o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Ta'lim jarayonida shaxsni kamol toptirish shart-sharoitlarini yaratish ta'lim muassasalarida ishlarni to'g'ri tashkil etilganligi bevosita psixologik xizmatni to'g'ri tashkil etishga xam bog'liqdir.

Ta'lim tizimida psixologik xizmatning tashkil etilishi tarbiyalanuvchi, o'quvchining individual-psixologik xususiyatlarini o'rganish asosida uning shaxsi har tomonlama kamol topishi, xam ma'naviy, xam aqliy rivojlanishi, o'zligini anglashi va qobiliyatlarini namoyon etishi uchun tegishli ta'lim-tarbiyaviy hamda ma'naviy-ruhiy sharoitlar yaratishni nazarda tutadi.

Ma'lumki, keyingi yillarda ta'limni isloh qilishda, milliy mustaqillik prinsiplari va xalqning boy intellektual merosi, umumbashariy qadriyatlarining ustivorligi asosida ta'limning barcha darajalari va bo'g'inlarida ta'lim oluvchilarning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish; ta'lim olishda, shuningdek, bolalar va yoshlarni ma'naviy axloqiy intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda jamoat tashkilotlari mahallalar, xayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish yuzasidan chora tadbirlar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish ishlari jadal suratlar bilan olib borildi.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bugungi kunda olib borilayotgan ijodiy intellektual salohiyatni rivojlantirishga oid barcha ishlarning sifat samaradorligi talab darajasida emas. Jamiyat va davlat oldidagi talablardan kelib chiqib, yoshlarni ta'lim jarayonida intellektual ijodiy salohiyatni rivojlantirish ishlarini muvaffaqiyatli olib borish zarur. Bu esa tarbiya jarayoniga psixologik-pedagogik texnologiyalarni qo'llashni, zamon talabi darajasida mutlaqo yangi tarbiya tizimini yaratishni talab qiladi.

Har bir o'quvchiga, uning shaxsiy xususiyatidan kelib chiqib, uning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirish maqsadida ta'lim-tarbiya jarayoniga biror psixologik yoki pedagogik uslubni qo'llash murakkab jarayondir. Lekin bu davr talabidir.

Muayyan takomillashgan pedagogik yoki psixologik uslubni qo'llash, uni mantiqiy-nazariy jihatdan to'liq anglab olish va amaliyotga qo'llashgacha bo'lgan murakkab jarayonga qaraganda – jarayonning o'zini loyihalashtirish eng qulay va samarador uslubdir. Ya'ni har bir o'quvchiga individual yondoshish kerak. Agar bola barcha vazifalarni osonlik bilan bajarsa, unda mantiqiy tafakkur, kuzatuvchanlik, mustahkam xotira, barcha narsalarga

qiziquvchanlik, o'z fikrini tushuntira olish, matematik amallarni bajara olishi, dunyoqarashining kengligi - bularning barchasi unda bilish jarayonlarining yuqori

darajada rivojlanganligi va kattalar tomonidan etarli darajada e'tibor berish kerakligini talab etadi.

Iqtidorli bola quyidagi xususiyatlarni ham o'zida mujassam etadi: ijodiy, original fikrga ega; yumor, hazilni tushunadi; biror narsani bilishga nisbatan cheksiz intilish va qiziquvchanlik; boy tasavvurga ega (ijodiy, tasviriy, musiqiy faoliyatda namoyon bo'ladi); ko'p hollarda o'z tengdoshlaridan mustaqilligi bilan ajralib turadi, kattalar bilan muloqotga intiladi.

Ba'zida esa ota-onalarni farzandlarining o'z tengdoshlariga o'xshamasligi, boladagi o'ta qiziquvchanlik, bilishga katta ishtiyoq xavotirga soladi. Bolaning xatti-harakatlari qat'iy va noan'anaviy bo'lsa, masalan Nimaga? Nima uchun? kabi savollarni ko'p bersa ba'zida ota-onalar bu savollarga javob berishga qiynalsalar, ular bolalarga tanbeh berishlari, va hattoki, uni jazolashlari mumkin.

Bunday holatlarda ota-onalar boladagi ijodiy imkoniyatlarni rivojlantirish o'rniga uni so'ndiradilar.

Iqtidorli bolalarning ota-onalari bilan suhbatlashganda ularning farzandlarining barcha sohalarida birinchi bo'lishi kabi hohishlarining guvohi bo'lish mumkin. Masalan, ona - mening farzandim qobiliyatli bo'lsa -yu, nima uchun o'qishni hohlamaydi? degan savolni berishi mumkin. Ba'zida shunday holatlar bo'ladi, ota-onalar bolani haddan tashqari biror bir mashg'ulot bilan shug'ullanishga majbur qilishlari, bolada ana shu faoliyatga nisbatan nafratni uyg'otishi mumkin. Agar biror muddat vaqt o'tsa, bolaning o'zi bunga qiziqishi, chunki ayni vaqtda bolani boshqa mashg'ulotlar ko'proq qiziqtirishi mumkin.

Iqtidorli bolaning o'quv faoliyatdagi yutuqlari uning erta yoshdan o'qishga bo'lgan intilishida namoyon bo'ladi. Ba'zida bolalar 3-4 yoshida, kattalarning yordamisiz mustaqil ravishda o'qiy boshlaydi. Bola kitoblarni tomosha qilishi, rasmlar asosida hikoya tuzishi, harflarni yozishi, kattalar o'qiyotganda uzoq vaqt sabr bilan tinglashi, o'z yoshiga mos bo'lmagan matematik amallarga qiziqishi, matematik belgi va ishoralarni tushunib eslab qolishi, ba'zida tabiatga, tabiiy fanlarga qiziqishini ham namoyon qilishi, turli predmetlarning kelib chiqishi va ularning vazifasi haqida savollar berishi mumkin. Badiiy faoliyat sohasida bola o'zini ertaroq namoyon etadi:

- erta rasm chizishni boshlaydi, ko'p vaqtini, masalan plastilindan turli narsalarni yasashga ajratadi, bunda o'zining mohirligini namoyiy etish orqali, ranglar, kompozitsiyalarni to'g'ri tanlay oladi. Shuningdek, musiqaga ham erta qiziqish paydo bo'ladi, musiqiy tovushlarni ajrata oladi.

Harakatlantiruvchi sohada iqtidor bolada turli harakatlarni bajarish, ya'ni yugurish, sakrash turli akrobatik mashqlarni bajarish, muvozanatni saqlay olishda namoyon bo'ladi. Bola turli yoki bitta sohada iqtidorli bo'lishiga qaramay, mana

shu tabiat tomonidan berilgan qobiliyatni o‘z vaqtida aniqlab, uning rivojlanishiga yordam berishimiz kerak.

Yoshlarni intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirishda tarbiyaning ahamiyati muhim rol o‘ynaydi. Intellektual ijodiy salohiyatni oshirish uchun tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo‘lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo‘ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi. YOshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirish jarayonida o‘quvchilarda jamiyatga naf keltiradigan, shaxsga qo‘yiladigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va ko‘nikma hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o‘quvchining ongiga, dunyo qarashi va irodasiga tizimli, muntazam ta’sir etib boriladi. Ijodiy salohiyatni rivojlantirish jarayonida bulardan birortasi e’tibordan chetda qolsa, ko‘zlangan maqsadga erishish qiyinlashadi. Mana shu psixologik jihatlarni e’tiborga olingandagina yoshlarning intellektual ijodiy qobiliyatlarini shakllantirib uni rivojlantrishga imkon yaratiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Богоявленская Д.Б., Богоявленская М.Е., Одаренность: природа и диагностика. М. ЦНППО, 2013
2. Davletshin M.G. va boshqalar. Qobiliyat va uning diagnostikasi. -T.:O‘qituvchi, 1997.
3. Do`stmuhamedova SH.A.,Nishanova Z.T. va boshqalar.Yosh davrlari va pedagogik psixologiya – Toshkent:” O`qituvchi”, 2013
4. Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. – Toshkent: Fan.- 2003
5. Ушаков Д. В. Психология интеллекта и одаренности»: Институт психологии РАН; Москва; 2011